

# Pudrat ishlarini bajarish uchun

10/1-1890 - sonli shartnoma

05 aprel 2022 yil.

Toshkent shaxar

**Qurilishda muhandislik qidiruvlari geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish davlat institute ("OZGASHKLITI") keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi nomidan, 05.01.2022 yildagi 1-sonli bosh ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Bosh direktor o'ribbosari **B.V.Usmanov** bir tomondan, va UK TOSHKENTYO'LKO'KALAM, nomidan, keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi, asosida harakat qiluvchi **Direktor** \_\_\_\_\_ nomidan ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:**

## 1. SHARTNOMA MAVZUSI

- 1.1. «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning texnik topshirig'iga asosan «Toshkent viloyati bo'ylab yil davomi Oxangaron, Chinoz va Bekabod tumanlaridan o'tuvchi umumaoydalanuvdagи avtomobil yo'llari chetida kuduq kavlab suvni chikazib nasoslarini va elektr energiyiya bilan taminlangan xolda, ishga tushurib foydalanuvga topshirish» bo'yicha qurilisch-montaj ishlarini bajarish majburiyatini, «Buyurtmachi» esa o'z navbatida ushbu bajarilgan ischlар (xizmatlar) uchun xaq to'lash va bajarilgan ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish majburiyatini oladi.
- 1.2. Ushbu ischlarni bajarisch yuzasidan texnik va boschqa talablar «Buyurtmachi» tomonidan taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlariда aks etgan.
- 1.3. Bajariladigan ishlar tarkibi, muddatlari mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan bajariladigan ishlar kalender rejasi (2-sonli ilova) ga muvofiq belgilanadi.
- 1.4. «Buyurtmachi» tomonidan shartnomaning 3.2 bandiga muvofiq bo'nak (avans) to'lovi amalga oschirilgandan keyin «Pudratchi» 5 kun ichida texnik topshiriqda keltirilgan dastlabki ruxsat beruvchi hujjatlar bilan shartnoma schartlari bo'yicha ishlarni bajarishni boshlaydi.
- 1.5. «Pudratchi» shartnoma shartlarini bajarishda o'zi bajarmaydigan va maxsus tadqiqot ishlari talab qilinadigan qismi yuzasidan «Buyurtmachi»ning oldindan yozma roziligini olmasdan subpudrat shartnomalarini tuzish huquqiga ega.

## 2. SHARTNOMANI TUZISH, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 2.1. Mazkur shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan vaqtidan kuchga kiradi va shartnoma majburiyatlarining to'liq bajarilguniga qadar amal qiladi.
- 2.2. «Buyurtmachi» 5 (besh) bank ish kuni mobaynida ushbu shartnomanasi rasmiylashtirishi lozim. Agar shartnomanasi rasmiylashtirishga to'sqinlik qiladigan holatlar aniqlansa, «Buyurtmachi» yozma ravishda «Pudratchi»ni ogoxlantirishi kerak. Aks holda, shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.
- 2.3. «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganda va shartnomaning 1.2 va 2.2. bandlari talablari buzilganda, «Pudratchi» ishlarni bajarish muddatini va ilmiy-texnik maxsulotni (keyingi o'rnlarda "maxsulot" deb ataladi) chop etish muddatini uzaytirishga haqli.
- 2.4. Loyiha shartnomasida taraflarning kelishmovchiliklari yuzaga kelgan taqdirda 5 (besh) kun ichida chora ko'rilib bayonnomaga tuzilishi lozim.
- 2.5. «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma yoki buyurtma bekor qilingan taqdirda yozma ravishda ma'lum qiladi hamda haqiqatda bajarilgan ishlar haqini to'lab berishi shart, shuningdek ularni tugatish uchun tashkiliy xarajatlar bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni qoplaydi.

## 3. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB-KITOB TARTIBI

- 3.1. Bajariladigan ishlar uchun to'lov qiymati, shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan shartnoma summasi bo'yicha kelishuv bayonnomasiga (1-sonli ilova) muvofiq: 1 549 999 998.00 (Bir milliard besh yuz qirq to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson sakkiz) so'm, shu jumladan QQS 202 173 912.78 so'mni tashkil etadi va aslida bajarilgan ishlar bo'yicha bajarilgan ishlar dalolathomsiga asosan aniqlik

kiritiladi.

- 3.2. «Buyurtmachi» shartnoma rasmiylashtirilganidan so'ng 5 (besh) bank ish kunida shartnoma summasining 30% miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.
- 3.3. Shartnoma summasidan ortiqcha bajariladigan va texnik topshiriqda nazarda tutilmagan yoki loyiha-smeta hujjatlarida aks ettirilmagan ishlar bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuziladi.
- 3.4. Avval to'langan avans to'llovi chegirma qilgan holda, «Pudratchi» taqdim etgan bajarilgan ishlar dalolatnomsiga asosan hisob-fakturasi imzolangan kundan boshlab, 10 (o'n) bank ish kuni mobaynida «Buyurtmachi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun to'lovni amalga oshiradi.

#### **4. ISHLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI**

- 4.1. «Pudratchi» og'zaki ravishda «Buyurtmachi»ga ishlar bajarilganligi haqida xabar qiladi.
- 4.2. «Buyurtmachi» bajarilgan ishlar dalolatnomsini va hisob-fakturani imzolab, rasmiylashtirib, «Pudratchi»dan bajarilgan ishlarni qabul qilib oladi.  
Ishlar bajarilgan kun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hisob varaq-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq «Pudratchi» tomonidan elektron hisob-faktura rasmiylashtiriladi.
- 4.3. Agar bajarilgan ishlar natijalarini shartlariga nomuvoqiflik bo'lsa, «Buyurtmachi» kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida dalolatnoma tuzadi va «Pudratchi»ga yuboradi. «Pudratchi» dalolatnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z mablag'i hisobidan qisqa vaqt ichida bartaraf etishga va «Buyurtmachi»ga taqdim etishga majbur.
- 4.4. «Pudratchi» barcha ishlarni muddatidan oldin bajarishga haqli. Bu holatda «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilib olishi va mazkur shartnoma shartlari asosida to'lovni to'liq amalga oshirishi lozim.
- 4.5. Sharhomaning 3.2. va 4.2. bandlari talablari buzilganda, «Pudratchi» bajarilgan ishlarni «Buyurtmachi»ga topschirmaslikka haqli.

#### **5. FORS-MAJOR XOLATLARI.**

- 5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini kechiktirishi, layoqatsizligi bilan qisman yoki to'liq bajarilishi bo'yicha, bu kabi kechikish yoki layoqatsizlik yengib bo'lmash fors-major xolatlari tufayli yuzaga kelganda, agar ushbu sharhnomani ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va nazorat qilib bo'lmaydigan, ya'ni: urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir, kuch mavjud bo'lgan taqdirda, xech bir taraf ikkinchi taraf oldida javobgar bo'la olmaydi.
- 5.2. Fors-major holati va oqibatlari davom etgan muddatda sharhomaning ham bajarish muddatları mutanosib ravishda uzaytiriladi. Fors-major holatini tanolish uchun vakolatli davlat organining ma'lumotnomasi va tomonlarning bir-biriga o'z vaqtida xabar berishlari asos bo'ladi.
- 5.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzlusiz davom etsa, taraflar bir-birini 10 (o'n) kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, sharhnomani bekor qilishi mumkin.

#### **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.**

- 6.1. Agar texnik, texnologik va tashkiliy sabablar bo'limasa xizmatlar ko'rsatish muddatini buzganligi uchun «Pudratchi» «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50% dan oshib ketmasligi lozim.
- 6.2. Ko'rsatilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun «Buyurtmachi» «Pudratchi»ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4% miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.
- 6.3. «Buyurtmachi» tomonidan ish natijalarini o'z vaqtida qabul qilmaslik yoki asossiz ravishda rad etganda «Pudratchi»ga tayyor maxsulot qiymatining 15% miqdorida jarima to'laydi.
- 6.4. Penyani to'lash sharhnomasi majburiyatlarini buzgan tarafni xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 6.5. "UzGASHKLITI" DUKdan olingen topografik materiallarning to'liq yoki qisman nusxasini ko'chirish, nusxa ko'paytirish va uchinchi shaxslarga topshirish faqatgina ishlab chiqaruvchining roziligi bilan amalga oshiriladi.
- 6.6. Topografik materiallarning O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga berish faqatgina qonun hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati asosida amalga oshiriladi.
- 6.7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 654, 695 moddalariga asosan taraflar sharhomaning bajarish jarayoni va olingen natijalarga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlari shart.
- 6.8. Mazkur sharhnomada manfaatlari buzilgan taqdirda taraflar talabnomasi taqdim etishga haqli. Talabnomani ko'rish muddati talabnomani olgan kundan boshlab 10 kundan oshmasligi lozim.

- 6.9. Nizolarni taraflarning muzokalarini yoli bilan xal etish imkonini bulmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirganlaridan so'ng, nizo belgilangan tartibda sudda hal etiladi.

6.10. Tomonlar o'tasida mazkur shartnomani tuzish, ijo etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplash yuzasidan yuzaga keladigan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi yoki boshqa vakolatlari sud tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## 7. BOSHQA SHARTLAR.

- 7.1. Zaruriyat bo'lganda «Buyurtmachi», yer qismini ajratish, shuningdek, yerdan foydalanuvchida ish olib borish va ishlash xuquqini beruvchi ruxsatnoma hujjatlarini rasmiylashtiradi.
  - 7.2. Alovida yer qismida ishlarini olib borish vaqtincha imkon bo'limganda (paxta va boshqa ekinlarni ekish, yerlarni yuvish, binolarni buzish va boshqalar), «Buyurtmachi» ushbu masalani yechimini hal etib, «Pudratchi»ga ish boshlash to'g'risida xabar beradi. «Pudratchi» yuqoridagi sabablarga ko'ra majburiy ish tanaffusi hisobiga Kalendar reja (2-sonli ilova) bo'yicha ish bajarish muddatini ko'chirishga haqlidir.
  - 7.3. «Pudratchi» ishlarni bajarishda o'rnatilgan texnika xavfsizligi qoidalariga, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya me'yorlariga muvofiq harakat qilishi, ekologik muhitni saqlashga hissa qo'shishi shart.
  - 7.4. Shartnomaning barcha bandlarini talqin qilish O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, Fuqarolik kodeksi, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida" kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Jinoiy kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.
  - 7.5. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxasi «Buyurtmachi»da, bir nusxasi «Pudratchi»da saqlanadi. Ikki nusxadagi Sharthnoma ham bir xil yuridik kuchga ega.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1. Sharhnomalar imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va ushbu sharhnomalar bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq ijro etguncha amal qiladi.

SHARTNOMAGA BIRIKTIRILGAN HUJJATLAR RO'YXATI

- 1-sonli llova "Sharhnomalar summasi bo'yicha kelishuv bayonnomasi";
  - 2-sonli llova "Kalendar reja".

TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOSI:

«PUDRATCHI»

«BUYURTMACHI»

«O'ZGASHKLITI»

Manzil: 100096, Toshkent shaxri Qatortol  
ko'chasi 38 uy,  
Tel.(8371)-273-04-82 Faks 273-86-09  
x/r 20210000704489790001  
TIF «Milliy bank» Olmazor filiali  
MFO: 00876 INN: 206328965  
OKED: 71110

UK TOSHKENTYO'U KO'KAI AM

Bosh direktor o'mbosari  
Usmanov B.V.  
  
M.D.



M.O'

Shartnoma summasi bo'yicha kelishuv

**BAYONNOMASI**

Biz, quyida imzo chekuvchilar, «Pudratchi» «O'ZGASHKLITI» nomidan, Bosh direktor o'rribosari B. V. Usmonov, va «Buyurtmachi» UK TOSHKENTYO'LKO'KALAM nomidan Direktor shartnomaning bahosi taraflar o'tasida kelishib, quyidagi narx belgilandi: : 1 549 999 998.00 (Bir milliard besh yuz qirq to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson sakkiz) so'm, shu jumladan QQS 202 173 912.78 so'm.

Toshkent viloyati bo'ylab yil davomi Oxangaron, Chinoz va Bekabod tumanlaridan o'tuvchi umumaoydalanuvdagい avtomobil yo'llari chetida kuduq kavlab suvni chikazib nasoslarini va elektr energiyiya bilan taminlangan xolda, ishga tushurib foydalanuvga topshirish ob'yekti bo'yicha qurilish montaj ishlari ishlarni bajarish

Bayonnomma «Buyurtmachi» va «Pudratchi» o'tasidagi o'zaro hisob-kitob uchun asos bo'lib xizmat qiladi

**«PUDRATCHI»**

Bosh direktor o'rribosari

Usmanov B.V.

M.O.

**«BUYURTMACHI»**

M.O'

05.04.2022 yil 10/1-1890 sonli shartnomaga  
Illova №2**KALENDAR REJASI**

UK TOSHKENTYO'LKO'KALAM ning buyurtmasiga binoan

Shartnoma bo'yicha ish turlari	Bajarish muddati	Hisob-kitob qiymati (so'm)
Qurilish montaj ishlari	Boshlang'ich to'lordan so'nng 50 kun ichida	1 549 999 998.00
JAM: 00.00.2022		1 549 999 998.00



Bosh direktor o'rribosari

M.O.

**«BUYURTMACHI»**

M.O'

